

IQTISODIYOTNING GLOBALLASHUV SHAROITIDA “ASOSIY VOSITALAR” BHXS 16 STANDARTINI QO’LLASHNING MAQSADI, UNI TAYYORLANISHI HAMDA AMALIYOTGA JORIY ETILISHI

Qoxxorova Mohigul Abdurashid qizi

Toshkent Moliya Instituti, 1-kurs magistr, Ta`lim yo`nalishi (mutaxassislik):

70410101 - Buxgalteriya hisobi (tarmoqlar va sohalar bo`yicha)

mohigul.qahhorova@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada buxgalteriya hisobining xalqaro standarti maqsadi, qo`llash doirasi, asosiy vositalar, asosiy vositalarning iqtisodiy mohiyati, xalqaro standartning qo`llashning maqsadi va xalqaro talablar asosida yuritilishi haqida to`xtolib o`tilgan.

Kalit so`zlar: asosiy vositalar, standart, buxgalteriya, moliyaviy hisobning xalqaro standarti, qonunchilik

ABSTRACT

This article focuses on the purpose of the international standard of accounting, scope of application, fixed assets, economic nature of fixed assets, the purpose of applying the international standard and its implementation based on international requirements.

Keywords: fixed assets, standard, accounting, international standard of financial accounting, legislation

KIRISH

Mamlakatimiz globallashuv sharoitida global hisob siyosatini yuritish va standartlarini qabul qilish bugungi kun talabi hisoblanadi. Zero hisob siyosati, shaffofligi har qanday axborot foydalanuvchisiga tushunarli va ma'lumot taqdim etiluvchiga ya'ni potensial investorga malakali, moliyaviy qarorlar qabul qilish imkonini yaratadi. Oldingi yillarda olib borilgan yopiq iqtisodiyot sharoitidan voz kechgan holda ochiq iqtisodiyot sharoitiga o'tishimiz, ochiq, shaffof, yangicha iqtisodiyotni tashkil etishga kirishganimiz bizning bugungi kundagi yutuqlarimizdan hisoblanadi.

Bugungi kunda kompaniyalarda moliyaviy hisobotlarini Moliyaviy Hisobotning Xalqaro Standartlari (MHXS) asosida tuzishga obyektiv zaruratlar mavjud. Qonunda ko`zda tutilgan tartibda MHXSlarini qo`llash tartibi joriy etildi. Dunyo bozoriga chiqish, xalqaro kredit olish, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish uchun moliyaviy hisobotni MHXSlari bo`yicha tuzish maqsadga muvofiqdir. Mamlakatimizda MHXSlari asosida moliyaviy hisobot tuzayotgan kompaniyalar soni oshib bormoqda. Chunki, moliyaviy hisobotning shaffofligini oshirishga erishish faqat MHXSlarga o'tish orqali amalga oshirilishi mumkin bo'ladi. Shu bois, xalqaro tashkilotlar tomonidan ishlab chiqilgan hujjatlar hamda ilg'or instrumentlar va tajribalardan foydalanish kun tartibidagi dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Bu borada O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoyev “Taqnidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar

faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak” nomli asarida “Ilg‘or xalqaro tajribaga muvofiq instrumentlardan foydalanish hisobiga pul-kredit siyosatini yanada takomillashtirish, milliy valyutaning va ichki bozordagi narxlarning barqarorligini ta’minalash”¹ vazifasining qo‘yilishi ham kompaniyalar boshqaruv tizimlarida ilg‘or xorijiy tajribalar va instrumentlardan foydalanishni ko‘zda tutadi.

2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha harakatlar strategiyasida “Xalqaro iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish, shu jumladan yetakchi xalqaro va xorijiy moliyaviy institutlar bilan aloqalarni kengaytirish yo‘li bilan, puxta o‘ylangan tashqi qarzlar siyosatini amalga oshirishini davom etish, jalb qilingan xorijiy investitsiyalar va kreditlardan samarali foydalanish”² vazifasi ham xalqaro moliyaviy institutlar, jumladan Moliyaviy Hisobotning Xalqaro Standartlari Qo‘mitasi bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yishni dolzarb masalalar qatoriga ko‘tarmoqda.

Ushbu masalalarning kun tartibiga qo‘yilishi MHXSlari asosida moliyaviy hisobot tuzish metodologiyasini takomillashtirishni taqozo etadi. Bunga moliyaviy hisobotni MHXSlari asosida transformatsiyalash orqali erishish mumkin. Bugungi kunda transformatsiya masalalari bo‘yicha adabiyotlar va ilmiy maqolalar ham yetarli emas. Shu bois, moliyaviy hisobot amaliyotga joriy qilish masalasi kun tartibida turgan dolzarb mavzu hisoblanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI

Asosiy vositalar buxgalteriya hisobini takomillashtirish masalalarining ilmiy-nazariy, uslubiy jihatlari xorijiy iqtisodchi olimlardan I.Melnikov, Ye.Sivkov, T.Yu.Sergeeva, Yu.Tryashenko, Yu.A.Babaev, A.M.Petrov, X.P.Raymond, A.A. Dodonov va boshqa ko‘plab olimlar ning ilmiy asarlarida o‘z aksini topgan. Mahalliy iqtisodchi olimlardan A.A.Karimov, D.Kudbiev, K.B.Urazov, S.N.Tashnazarov, B.O.Bolibekov, D.M.Matkarov, Q.X. Xatamov va boshqalarning ilmiy asarlarida asosiy vositalarning buxgalteriya hisobini takomillashtirish bo‘yicha izlanishlar olib borilgan hamda bu bo‘yicha nazariy-uslubiy masalalar yoritib berilgan.

Maqolani yozishda ilmiy abstraktsiyalash, induktsiya, deduktsiya, tizimli yondashish, qiyosiy tahlil va sintez, iqtisodiy-matematik modellashtirish va guruhlash, monografik kuzatuv kabi usullardan foydalanilgan.

NATIJALAR

Bozor iqtisodiyotining globallashuv jarayonida korxonalarda moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlar talablariga ko‘ra tuzilishi potentsial investorlar uchun ishonchli ma’lumotlarni yetkazib berish, hamda mamlakatga chet el investorlarini jalb qilish imkoniyatlarini oshirish uchun asos hisoblanadi. Moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlarini hisob jarayoniga tadbiq etish korxona faoliyatining asosi sanalgan, qolaversa hisob ishlarida alohida ahamiyatga ega bo‘lgan asosiy vositalar hisobini tadqiq etishdan boshlanishi maqsadga muvofiqliр. Korxonalarda asosiy vositalar hisobining

¹ Shavkat Mirziyoyev “Taqnidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak” nomli asari

² 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha harakatlar strategiyasi

oldiga qo'yilgan birlamchi vazifalar sifatida ularni kirish qilish, asosiy vositalar qiymatini amortizatsiyalash, asosiy vositalarga keyingi qilingan xarajatlarni hisobga olish hamda asosiy vositalarni hisobdan chiqarish jarayonlarini buxgalteriya hisobida aks ettirishni sanab o'tish mumkin.

Jahon amaliyotida olib borilayotgan tadqiqotlarda asosiy vositalarni moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini joriy qilishda yuzaga chiquvchi muammolar, ularda asosiy vositalar hisobining turlicha yuritilishi, asosiy vositalar to'g'risidagi ma'lumotlarning bir xil andoza talablari doirasida emasligi, asosiy vositalar obyekti sifatida tan olinuvchi aktivlar iqtisodiy mazmunining turlicha talqin etilishi kabi muammolar keng o'rganilmoqda. Bugungi kunda rivojlangan mamlakatlarda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida hisobni yuritish va asosiy vositalarni to'g'ri hisobga olish bo'yicha uzlucksiz tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Ushbu tadqiqotlarda asosiy vositalarni tasniflash, tan olish, baholash, ularga eskirish hisoblash, tahlil qilish uslubiyotini tashkil etishni ta'minlashning afzalliklari belgilab berilgan. Shu sababli dunyo miqyosida moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini joriy etish asosida asosiy vositalar hisobini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar ustuvor yo'nalishlar etib belgilangan.

Xalqaro amaliyotda asosiy vositalarni muntazam ravishda modernizasiya qilish, uning samaradorligini oshirish uchun doimiy ravishda investisiyalar kiritish talablaridan biri moliyaviy hisobotlarni xalqaro standartlar asosida yuritish va ulardan foydalanishdir. Ayniqsa asosiy vositalarni muntazam yangilab turishda uning hisobini buxgalteriya hisobining xalqaro standarti (BHXS) 16 – sonli "Asosiy vositalar" nomli standart asosida yuritish qulay investision muhit yaratadi. Chunki ushbu standart asosida hisob siyosati yuritilishi investorlar uchun qulay va ishonchli moliyaviy hisobotlar taqdim etilishi natijasida asosiy vositalarga investisiya kiritish imkoniyatini yaratadi.

O'zbekistonda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar bilan bir qatorda raqamli iqtisodiyotni tashkil etish sharoitida hisob tizimi, xususan, asosiy vositalar buxgalteriya hisobini takomillashtirish hamda moliyaviy axborotlarning shaffofligini ta'minlash masalalari alohida ahamiyat kasb etadi. Respublikada «2021 yil 1 yanvardan boshlab, MHXS asosida buxgalteriya hisobi yuritilishini tashkil etish va 2021 yil yakunlaridan boshlab moliyaviy hisobotni MHXS asosida tayyorlash»³masalalariga jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tishni jadallashtirish orqali xorijiy investorlarni zarur axborot muhiti bilan ta'minlash, mahalliy korxonalarimizni xalqaro bozorlarga kirish imkoniyatlarini kengaytirish, shuningdek, aktivlar va majburiyatlar hisobini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish asosida moliyaviy hisobotlarni axborot imkoniyatlarini oshirish bugungi kunda buxgalteriya hisobi sohasidagi islohotlarning asosiy maqsadi etib belgilangan. Mazkur maqsadga erishishni ta'minlashda asosiy vositalar hisobini xalqaro standartlar talablari asosida takomillashtirish va tahlil etish uslubiyotini rivojlantirish yo'nalishida ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirishni talab etadi.

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 24 fevraldaggi "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4611-son qarori

Bu borada O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoyev "Taqnidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak" nomli asarida "Ilg'or xalqaro tajribaga muvofiq instrumentlardan foydalanish hisobiga pul-kredit siyosatini yanada takomillashtirish, milliy valyutaning va ichki bozordagi narxlarning barqarorligini ta'minlash"⁴ vazifasining qo'yilishi ham kompaniyalar boshqaruv tizimlarida ilg'or xorijiy tajribalar va instrumentlardan foydalanishni ko'zda tutadi.

2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'naliislari bo'yicha harakatlar strategiyasida "Xalqaro iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish, shu jumladan yetakchi xalqaro va xorijiy moliyaviy institutlar bilan aloqalarni kengaytirish yo'li bilan, puxta o'ylangan tashqi qarzlar siyosatini amalga oshirishini davom etish, jalb qilingan xorijiy investitsiyalar va kreditlardan samarali foydalanish"⁵ vazifasi ham xalqaro moliyaviy institutlar, jumladan Moliyaviy Hisobotning Xalqaro Standartlari Qo'mitasi bilan hamkorlikni yo'lga qo'yishni dolzarb masalalar qatoriga ko'tarmoqda.

Ushbu masalalarning kun tartibiga qo'yilishi MHXSlari asosida moliyaviy hisobot tuzish metodologiyasini takomillashtirishni taqozo etadi. Bunga moliyaviy hisobotni MHXSlari asosida transformatsiyalash orqali erishish mumkin. Bugungi kunda transformatsiya masalalari bo'yicha adabiyotlar va ilmiy maqolalar ham yetarli emas. Shu bois, moliyaviy hisobot amaliyotga joriy qilish masalasi kun tartibida turgan dolzarb mavzu hisoblanadi.

Moliyaviy hisobotni taqdim etish kabi MHXSning asosiy maqsadiga erishish uchun quyidagilar belgilanishi kerak

- vazifalarini yechish uchun talab etiladigan moliyaviy ma'lumot;
- axborot tizimini tuzish tamoyillari;
- moliyaviy hisobot elementlari.

Moliyaviy hisobotning maqsadi moliyaviy ahvol, faoliyat natijalari va moliyaviy ahvoldagi o'zgarishlar haqida ma'lumot taqdim etishdan iboratdir. Ushbu ma'lumot keng doiradagi foydalanuvchilarga qarorlarni qabul qilish uchun zarurdir. Moliyaviy hisobot foydalanuvchilar tomonidan qabul qilinadigan iqtisodiy qarorlar, korxonani pul mablag'lari va ularni ekvivalentlarini yaratish va ko'paytirish, shuningdek bu jarayonni barqarorligi va o'z vaqtida amalga oshirilishi imkoniyatini baholashni talab etadi. Foydalanuvchilar, korxonaning pul mablag'lari va ularni ekvivalentlarini yaratish qobiliyatini baholashi uchun, korxonaning moliyaviy ahvoli, faoliyat natijalari va moliyaviy ahvoldagi o'zgarishlarga yo'naltirilgan ma'lumotlarga ega bo'lishi kerak. Moliyaviy ahvol to'g'risidagi ma'lumot asosan buxgalteriya muvozanatida (muvozanat hisobotida) beriladi. Korxona faoliyatining natijalari haqida ma'lumot asosan foya va zararlar to'grisidagi hisobotda keltiriladi. Moliyaviy ahvoldagi o'zgarishlar moliyaviy hisobotda alohida o'rinn egallagan hisobot (xususiy kapitaldag'i o'zgarishlar) orqali ko'rsatiladi. Moliyaviy hisobotning tarkibiy qismlari bir-biri bilan uzviy bog'liqdir, chunki ular bir xil operatsiyalar va hodisalarni turli javhalarini aks

⁴ Shavkat Mirziyoyev "Taqnidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak" nomli asari

⁵ 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'naliislari bo'yicha harakatlar strategiyasi

ettiradi. Hisobotning har bir shakli boshqalardan farq qiladigan ma'lumotni berishiga qaramasdan, hech biri bir ashyo yakkalanib qolmaydi va foydalanuvchilar uchun muayyan ehtiyojlarini aks ettiruvchi kerakli bo'lgan barcha ma'lumotni yetkazib bera olmaydi. Masalan, foya va zararlar to'g'risidagi hisobot, muvozanat va moliyaviy ahvolni o'zgarishi haqidagi hisobotlarning ma'lumotlarisiz foydalansa, korxonaning moliyaviy natijalari haqida to'liq axborotni bera olmaydi.

Amalda bo'lgan buxgalteriya hisobi milliy standartlari va moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari talablarini tadqiq etish natijasida asosiy vositalarning kirim qilish jarayonida ham bir qancha tafovutlar mavjud ekanligi aniqlandi. Jumladan, asosiy vositalarni foydalanish uchun qabul qilish, ularga eskirish hisoblash davrining boshlanishi bo'yicha o'rnatilgan talab va tartiblar milliy va xalqaro standartlarga ko'ra butunlay farq qiladi. "Asosiy vositalar" nomli 5-son Buxgalteriya hisobi milliy standarti 6-§ 30-moddasida asosiy vositalar bo'yicha amortizatsiya ajratmalarini hisoblash mazkur obyekt asosiy vositalar tarkibiga qabul qilingan oydan keyingi oyning dastlabki sanasidan boshlanishi belgilab qo'yilgan. 16-son Buxgalteriya hisobining xalqaro standarti ham "Asosiy vositalar" deb nomlanib, uning 55-moddasida esa asosiy vositalar bo'yicha amortizatsiya hisoblanishi ushbu aktiv rahbariyat tomonidan ko'zlangan holda foydalanish uchun zarur bo'lgan joy va holatiga keltirilganida foydalanish uchun yaroqli va mavjud bo'lganidan so'ng boshlanishi ko'rsatib o'tilgan. Bu talabning milliy andozalarni ishlab chiqishda inobatga olinishi tayyor ishchi holatdagi asosiy vositalardan samarali foydalanishni, ularni jadal ekspluatatsiyaga kiritilishini rag'batlantiradi. Asosiy vositalarni hisob jarayonini tashkil etishda milliy va xalqaro standartlar talablari orasida juda katta tafovut mavjud. Jumladan, asosiy vositalarning tasniflanishi, asosiy vositalarni kirim qilish jarayonlari, asosiy vositalarga eskirish hisoblash jarayonlari, ijara munosabatlarini hisobga olish masalalarini sanab o'tish mumkin.

Asosiy vositalar hisobi moliyaviy hisobning xalqaro standartlari talablaridan kelib chiqib "tarixiy qiymat" yoki "qayta baholash" usullarida hisobga olinishi mumkin. Milliy hisoblar tizimida esa bu haqida ma'lumotlar keltirilmagan. Kirim qilish jarayonida MHXSga ko'ra asosiy vositalar qiymatining yirik qismini tashkil etgan, asosiy vositadan farqli xizmat muddatiga ega bo'lgan elementlari alohida hisob obyekti sifatida kirim qilish va ularga alohida eskirish usullarini qo'llash, asosiy vositalar boshlang'ich qiymati tarkibiga demontaj xarajatlarining diskontlangan qiymatlarini kiritish mumkinligi aytilgan bo'lsa, BHMSda bu haqida ham yetarli ma'lumotlar keltirilmagan. Shu o'rinda asosiy vositalarning "foydali xizmat muddati" va "iqtisodiy foydalanish muddati" atamalarining farqlarini aniq tushunish kerak. Asosiy vositalarning foydali xizmat muddati bu tadbirdorlik subyektlarida mazkur asosiy vositalardan qancha muddat foydalanish rejalashtirilgan davrni ifodalasa, iqtisodiy foydalanish muddati esa aktivning iqtisodiy nuqtai-nazardan bir yoki undan ortiq foydalanuvchilar uchun yaroqli bo'ladigan davri tushuniladi.

Asosiy vositalar tarkibida hisobga olinuvchi investitsion mulk, sotishga tayyor asosiy vositalar hisobi to'g'risida BHMSda hech qanday ma'lumot va ko'rsatmalar berilmagan. BHMSda asosiy vositani qayta baholash jarayonlarini hisobda aks ettirish, asosiy vositalarni hisobdan chiqarish masalalari ham xuddi shunday bugungi kun talablariga javob bera olmaydi. Bundan tashqari asosiy vositalar hisobini mukammal tarzda tashkil etish maqsadida qo'shimcha 5-son MHXS "Sotish uchun mo'ljallangan

uzoq muddatli aktivlar va davom ettirilmaydigan faoliyat”, 17-son BHXS “Ijara”, 40-son BHXS “Investitsion multk”, 13-MHXS “Haqqoniq qiyamatni baholash” hamda 41-son BHXS “Qishloq xo’jaligi” nomli standartlar ham ishlab chiqilgan bo’lib, bu standartlar asosiy vositalar hisobining alohida xususiyatlari bo’yicha hisobga olinishi talab etiladigan turlarini buxgalteriyada hisobga olish shartlarini belgilaydi.

Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida xo’jalik yurituvchi subyektlar moliya-xo’jalik faoliyatini amalga oshirishda asosiy vositalarning o’rni nihoyatda kattadir. Asosiy vositalar xo’jalik yurituvchi subyektning ishlab chiqarish jarayonida juda katta rol o’ynaydi, chunki ular barcha xo’jalik yurituvchi subyekt tayanadigan va xo’jalik yurituvchi subyektning ishlab chiqarish quvvatini baholash mezoni bo’lgan ishlab chiqarish texnika bazasini tashkil etadi.

Asosiy vositalarning iqtisodiy mohiyati to’g’risida ko’plab fikrlar mavjud, ammo ularning barchasi asosiy vositalarni uzoq vaqt davomida asl ko’rinishini saqlab, ishlab chiqarish jarayonida bir necha bor ishlatiladigan mehnat vositasi sifatida aniqlashga qaratiladi. Ishlab chiqarish jarayoni va tashqi muhit ta’siri ostida asosiy vositalarning eskirishi va boshlang’ich tannarxning butun foydali xizmat muddati davomida amortizatsiya natijasida ishlab chiqarilgan mahsulotlarga o’tkazilishi kuzatiladi.

Asosiy vositalar hisobini tashkil qilishda asosiy e’tibor beriladigan jihatlari, bu asosiy vositalarni aktiv sifatida tan olingen paytini belgilash, asosiy vositalarni guruhlarga ajratish, mazkur aktivlarga nisbatan qo’llaniladigan baholash qiyamatini va amortizatsiyani hisoblash usullarini belgilash, shuningdek asosiy vositalarning qiyamatidagi o’zgarishlarni, asosiy vositalar harakati hisobi va ularning chiqib ketishi hisobini belgilashdan iborat. Asosiy vositalarni hisobga olishdagi nizom hamda yo’riqnomalar asosida tashkil etish, asosiy vositalarning chiqib ketishi va ularni ijara berilishidan moliyaviy natijalarni aniqlash tartibini belgilash va hisobga olish asosiy qoidalarini korxona buxgalteriya xizmati bo’limida tashkil qilish hisoblanadi.

“Asosiy vositalar” nomli 5-son BHMSga asosan, asosiy vositalar uzoq davom etadigan vaqt mobaynida (bir yildan ortiq vaqt davomida) moddiy ishlab chiqarish sohasida ham amal qiladigan, shuningdek, ijara berish uchun foydalaniladigan moddiy aktivlardir⁶.

16-sonli BHXS da “Asosiy vositalar – quyidagilar uchun mo’ljallangan moddiy aktivlardir: (a) mahsulotlarni ishlab chiqarish yoki yetkazib berish, yoki xizmatlarni ko’rsatish, yoki boshqa tomonlarga ijara berish, yoki ma’muriy maqsadlarda foydalanish uchun mo’ljalangan; (b) bir davrdan uzoqroq muddat davomida foydalanishi kutilgan”⁷ deb tarif berilgan.

16-sonli BHXSda «inventar obyekti» tushunchasi mavjud emasligiga ham alohida e’tibor qaratish lozim. Chunki, asosiy vositalar bo’yicha amortizatsiya hisoblash uchun baholash birligi inventar birliklarga muvofiq kelmaydi. Ya’ni, asosiy vositalarga amortizatsiya hisoblash jarayonida alohida komponentlarga ajratgan holda hisob ishlarini amalga oshirish, buxgalteriya o’tkazmalarida esa natijalarni komponentlar bo’yicha hisoblangan eskirish summalarini jamlagan holda berilishi belgilangan. Shu sababli har

⁶ 5-sonli BXMS “Asosiy vositalar”

⁷ 16-sonli BHXS “Asosiy vositalar”

doim ham asosiy vositaga bir inventar sifatida qarab, bir xil eskirish usullarini qo'llash mumkin emas. Asosiy vositalarni alohida komponentlarga ajratishning ikki sharti bor:

1. Asosiy vosita komponentlarining foydali xizmat muddatlari turlichalbo'lsa;
2. Komponent qiymati asosiy vosita umumiylariga nisbatan salmoqli ulushga ega bo'lsa.

Asosiy vositalar komponentlarining foydali xizmat muddatlari hamda amortizatsiya hisoblash usullari bir-biriga mos kelsa birlashtirilgan holda hisobni yuritishga yo'l qo'yiladi.

Asosiy vositalar hisobini tartibga soluvchi 16-son MHXSlariga ko'ra korxonalar har hisobot yilining oxirida asosiy vositalarning qolgan foydali xizmat muddatini, eskirish usullarini va tugatish qiymatini qayta ko'rib chiqishlari hamda baholashlari shart. Agar zarurat tug'ilsa, ularni o'zgartirishlari talab etiladi.

Asosiy vositalar qayta baholash qiymatlari korxona taqsimlanmagan foydasiga hisobdan chiqariladi. Uning ikki xil usulda bajarilishi nazarda tutilgan. Birinchisi, asosiy vositaning qolgan foydali xizmat muddati davomida taqsimlangan holda shakllangan qayta baholash natijaviy qiymatlarini taqsimlanmagan foydaga o'tkazish. Ikkinchisi, asosiy vosita hisobdan chiqarilayotgan paytda shakllangan qayta baholash natijaviy qiymatlarini to'liq taqsimlanmagan foydaga o'tkazish. BHMSlarida ikkinchi usul, ya'ni asosiy vosita hisobdan chiqarilmaguncha qayta baholash natijalarini rezerv schotlarida saqlanishi nazarda tutilgan. MHXSlari talabi esa asosiy vositaning qolgan foydali xizmat muddati davomida taqsimlanmagan foydaga rezerv schoti qoldiqlarini o'tkazish usulini tavsiya etadi. Taqsimlanmagan foyda schotiga o'tkaziladigan summa qayta baholangan aktiv qiymati asosida hisoblangan eskirish summasi bilan aktivning boshlang'ich qiymati asosida hisoblangan eskirish summasi o'rtaqidagi farqdan iborat bo'ladi.

Asosiy vositalar qiymatini balansda tan olishni to'xtatish ularning har turli chiqib ketish holatlari va asosiy vositalardan foydalanish kelgusida iqtisodiy naf keltirishi kutilmayotganda amalga oshiriladi. BHMSlarida asosiy vositalarning kelgusida iqtisodiy naf keltirishi masalasi yoritib berilmagan. Bu obyektning iqtisodiy xizmat muddati bilan uzviy bog'liq tushuncha sanaladi. Asosiy vositalarni balansda tan olinishining to'xtatilishi faqatgina uning chiqib ketishi holatidagina amalga oshirilgan.

BHXS 16-son "Asosiy vositalar" nomli standartining maqsadi moliyaviy hisobotlardan foydalanuvchilar tadbirkorlik subyektining asosiy vositalariga qilgan investitsiyalarini va bunday investitsiyalardagi o'zgarishlar haqidagi ma'lumotlarni tushunishi uchun asosiy vositalarni hisobga olish tartibini belgilab berishdan iboratdir.

Asosiy vositalarni hisobga olishda asosiy masalalar bo'lib aktivlarni tan olish, ularning balans qiymatini aniqlash va ular bo'yicha eskirish xarajatlarini va qadrsizlanish bo'yicha zararlarni tan olish hisoblanadi. Ushbu Standart asosiy vositalarni hisobga olishda qo'llanilishi lozim, biroq boshqa Standartlar asosiy vositalarni o'zgacha hisobga olishni talab etgan yoki ruxsat etgan hollari bundan mustasno.

Asosiy vositalar – quyidagilar uchun mo'ljalangan moddiy aktivlardir:

- mahsulotlarni ishlab chiqarish yoki yetkazib berish, yoki xizmatlarni ko'rsatish, yoki boshqa tomonlarga ijara berish, yoki ma'muriy maqsadlarda foydalanish uchun mo'ljalangan;

- bir davrdan uzoqroq muddat davomida foydalanilishi kutilgan.

Asosiy vositalar obyektining tannarxi faqatgina quyidagi shartlar bajarilganda aktiv sifatida tan olinadi:

- tadbirkorlik subyekti tomonidan asosiy vosita bilan bog'liq kelgusi iqtisodiy naf olinishi ehtimoli mavjud bo'lsa;
- aktivning tannarxi ishonchli baholana olsa.

Ehtiyyot qismlar, yordamchi va ta'mirlovchi jihozlar kabi moddalar asosiy vositalar ta'rifiga mos kelganida ushbu MHXSga muvofiq tan olinadi. Aks hollarda bunday moddalar tovar-moddiy zaxiralar sifatida tasniflanadi.

MUHOKAMA

Maqolaning asosiy masalasi moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga muvofiq BHXS 16 standartning qo'llanilishi va xorijiy investorlarni zarur axborot muhiti bilan ta'minlash va xalqaro moliya bozorlariga kirish imkoniyatlarini kengaytirishdan iboratdir. "Asosiy vositalar" (BHXS 16) standartni qo'llashni takomillashtirishga qaratilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalarning ishlab chiqish bilan belgilanishi ko'zda tutilgan.

Maqola mavzusidagi muammolar quyidagilar orqali namoyon bo'lishi mumkin:

- Buxgalteriya hisobining milliy standartlarini MHXSga uyg'unlashtirishni hisobga olgan holda ularni takomillashtirish;
- MHXSni joriy etishni hisobga olgan holda normativ -huquqiy hujjatlarni qayta ko'rib chiqish va takliflar ishlab chiqish;
- Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari talablariga javob beradigan buxgalterlarni milliy sertifikatlash tizimini joriy qilish bo'yicha chora tadbirlar tashkil etish.

XULOSA

BHXS 16-son "Asosiy vositalar" nomli standartining maqsadi moliyaviy hisobotlardan foydalanuvchilar tadbirkorlik subyektining asosiy vositalariga qilgan investitsiyalarini va bunday investitsiyalardagi o'zgarishlar haqidagi ma'lumotlarni tushunishi uchun asosiy vositalarni hisobga olish tartibini belgilab berishdan iboratdir.

Asosiy vositalarni hisobga olishda asosiy masalalar bo'lib aktivlarni tan olish, ularning balans qiymatini aniqlash va ular bo'yicha eskirish xarajatlarini va qadrsizlanish bo'yicha zararlarni tan olish hisoblanadi. Ushbu Standart asosiy vositalarni hisobga olishda qo'llanilishi lozim, biroq boshqa Standartlar asosiy vositalarni o'zgacha hisobga olishni talab etgan yoki ruxsat etgan hollari bundan mustasno.

Ushbu Standart tan olish uchun o'lchov birligini, ya'ni asosiy vosita obyekti nimadan tashkil topishini belgilab bermaydi. Shuning uchun, tadbirkorlik subyektining o'ziga xos shart-sharoitlarida tan olish mezonlarini qo'llash uchun mulohaza qilish talab etiladi. Qoliplar, dastaklar va muhrlar kabi alohida muhim bo'lмаган moddalarni birlashtirish va tan olish mezonlarini ushbu birlashtirilgan qiymatga nisbatan qo'llash o'rinni bo'lishi mumkin.

Muxtasar aytganda, MHXSga o'tish va MHXSni belgilangan tashkilotlar tomonidan muvaffaqiyatli tatbiq etish nafaqat kompaniya istiqbolini ta'minlaydi, balki butun iqtisodiyot tarmoqlari rivojlanishiga ijobiyligi ta'sir ko'rsatadi. Buni amalgalashtirish uchun asosiy vositalarni hisobga olishda qo'llanilishi lozim, biroq boshqa Standartlar asosiy vositalarni o'zgacha hisobga olishni talab etgan yoki ruxsat etgan hollari bundan mustasno.

oshirish uchun oldimizda turgan vazifalar va qiyinchiliklarni samarali va belgilangan muddatlarda hal etilishi lozim.

Shuni unutmaslik kerakki, moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tishda qiyinchiliklar bo‘lishi tabiiy holat. Eng muhimi, ushbu qiyinchiliklar ortidan erishiladigan foydali jihatlarni tasavvur qilish muhim sanaladi.

ADABIYOTLAR RO`YXATI

1. Mel'nikov I. “Buxgalterskiy uchet”. – Litres 2017. – 406 c.; Sivkov Ye. Sovremenniy buxgalterskiy uchet - 2018. - ISBN-978-5-0404-1038-5;
2. Babaev Yu.A., Petrov A.M. “Buxgalterskiy uchet:: uchebnik. - Prospekt, 2018. - ISBN: 978-5-392-28278-4;
3. M.Bonham. “Generally accepted accounting practice under IFRS”. Ernst &Young. USA, 2010.
4. A. Rizaqulov,B.Xasanov, A.Usanov, Z.Mamatov. “Buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari”. Tarjima. T.: - 2004.
5. Jalolova D. “Buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari” - T.: Moliya instituti, 2004. - 25 b.
6. Norbekov D.E., Ochilov I.K. “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari” fanidan o‘quv - uslubiy majmua, Toshkent -2019,
7. www.ifrs.academy.uz
8. www.mf.uz
9. www.bss.uz
10. www.tfi.uz
11. www.norma.uz
12. www.lex.uz
13. www.buxgalter.uz
14. www.natlib.uz